

Til o'rganishda yangi so'zlarni tez eslab qolish va ulardan foydalanish

Termiz davlat universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti
4-kurs talabasi

Jo'raqulov Safarali

Annotatsiya: Bugungi hayotni chet tillarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Globallashuv jarayoni tezlashar ekan, chet tilini o'rganish davr talabiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda har qanday sohada yaxshi mutaxassis bo'lish uchun ingliz, nemis va boshqa xorijiy tillarni bilish umumiy talabga aylangan. Maqolada keltirilgan xulosa va fikrlar yangi so'zlarni tez eslab qolish va ulardan til o'rganishda foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: so'z yodlash usullari, xotira, so'z yodlashga ajratilgan vaqt, duolingo

Abstract: Today's life cannot be imagined without foreign languages. As the process of globalization accelerates, learning a foreign language is becoming the need of the hour. Today, in order to become a good specialist in any field, knowledge of English, German and other foreign languages has become a common requirement. The conclusions and opinions presented in the article serve to increase the efficiency of quickly remembering new words and their use in language learning.

Key words: word memorization methods, memory, the art of "mnemonics", time allocated to memorizing words, duolingo

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan imkoniyatlar va o'zgarishlar natijasida oliy o'quv yurti magistratura bosqichi, ikkinchi mutaxassislik imtihonlariga va chet tili o'qituvchisi sifatida ishga kirish jarayonlari uchun kasbiy mahoratdan tashqari chet tilini bilish sertifikatlari ta'lab qilinmoqda¹. Bu esa,

“One Language sets you in a corridor for life. Two languages open every door along the way” (Frank Smith)²

“Bir til sizni hayot so'qmoqlariga olib chiqadi. Iktasi ea yo'ldagi barcha to'siqlarni yengishga yordam beradi”, - degan tushunchani yuzaga keltiradi.

Har qanday chet tilini o'rganish jarayonini avvalo uning so'zlarini yodlashdan boshlaymiz. Chet tilini o'rganishda so'z boyligini doimiy ravishda kengaytirish juda muhimdir. So'zlarni yodlashda uni to'g'ri talaffuz qilish, o'z o'rnida to'g'ri qo'llay olish va uzoq vaqt xotirada saqlab qolishda bir qancha muammolar yuzaga keladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.05.2021 yildagi PQ-5117-son

² Shohruh Mirzo Rahmonov, Iskandar Sattibayev “So'z yodlash sirlari”, Toshkent 2015, “Istiqlol nuri”, 70-bet

Yangi so'zni oson yodlash, muloqotda qo'llash, va albatta xotirada uzoq muddatga saqlash uchun so'z yodlashning yangi va samarali usullaridan foydalanish zarurdir:

Ulanish tarmoqlarini yaratish

Bizning miyamiz biz o'qigan narsalarni qabul qiladi va uni tasvirlar, g'oyalar va his-tuyg'ularga aylantiradi, so'ngra yangi ma'lumotlar va biz allaqachon bilgan narsalar o'rtasida aloqa o'rnatadi. Eslash jarayoni shunday - yangi eski bilan birlashadi. Agar siz yangi so'z yoki tushunchani o'zingiz bilgan narsa bilan bog'lasangiz, miyada yangi so'zni o'z vaqtida topish va eslab qolish osonroq bo'ladi. Masalan: siz "book" so'zining ingliz tilidagi tarjimasini allaqachon bilasiz va siz inglizcha "new" so'zini o'rganingiz va endi siz ushbu ikki so'zni, ya'ni "book is new" "ni bog'lashni o'rganishingiz mumkin.

Yangi so'zlarni o'rganish va eslab qolish uchun smartfondan samarali foydalanish

Til o'rganish uzoq va mashaqqatli jarayon bo'lgani uchun uni iloji boricha oson qilishga harakat qilishimiz kerak. Til o'rganish uchun chet tilida gaplashadigan mamlakatda bo'lish shart emas. Avvalo, telefon tilini o'rganayotgan tiliga o'zgartirish, radio va chet tilida podkastlarni tinglash yaxshi samara beradi. Bundan tashqari internetda smartfonlarga o'rnatilishi mumkin bo'lgan minglab xorijiy tillarni o'rganish dasturlari mavjud. Bularidan biri "Duolingo" til o'rganish dasturidir.

Duolingo (dju:oo'lingoo) — Amerika tillarini o'rganuvchi veb-sayti va mobil ilovasi bo'lib, foydalanuvchilar oraliq takrorlash yordamida so'z boyligi, grammatika va talaffuzni mashq qilish uchun o'ziga xos „ko'nikmalarga“ ega bo'lgan holda maqsadli tillariga moslashtirilgan „tarmoqlardan“ foydalangan holda o'rganadilar. Ko'nikmalar doirasidagi mashqlar yozma tarjima, o'qishni tushunish, nutqni tushunish va qisqa hikoya mashqlarini o'z ichiga olishi mumkin. 2021-yil iyun holatiga ko'ra, Duolingo 40 tilda 103 xil til kurslarini taklif etmoqda (biroq hali o'zbek tili mavjud emas). Duolingo platformasining 500 milliondan ortiq ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilari bor. ³

Chet tilini kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz kerak.

Kundaligni (kunlik faoliyat yoziladigan daftar, agar sizda yo'q bo'lsa, men uni hech bo'lmaganda til o'rganish uchun saqlashni tavsiya etaman), eslatmalarni, , hatto xaridlar o'rganayotgan tilingizda yozing.

Til takrorlashga asoslangandir.

Tilni doimiy takrorlashsiz o'rganib bo'lmaydi. Kuniga 10 ta yangi so'zni yodlab olishingiz mumkin, lekin bu so'zlarni 1-2 kundan keyin takrorlamasangiz, albatta

³ León, Riley de (19.11 2020). „The education app that is making equals of Bill Gates and the world's masses“.

unutasiz. Buning eng samarali usullaridan biri flesh-kartalardir. Flesh kartalar yordamida avtobus, metro va boshqa transport vositalarida ham tinglab yodlash mumkin. Yoki, agar bo'lmasa, ko'zlaringiz eng ko'p tushadigan joylarga rasmi kartochkalar yopishtirib takrorlashan samarali foydalanishingiz mumkin.

Asosiysi vaqt

Xotira jarayonlarini o'rganuvchi psixologlar narsalarni tez va uzoq vaqt davomida yodlashning yaxshiroq yo'li borligini ta'kidlaydilar. Amerikalik kibernetik, neyrofiziolog, psixiatr – Grey Uolter xotiraga shunday tushuncha beradi: «Xotira-doimiy yonib turadigan shamdir». Agar yanada qisqa qilib aytiladigan bo'lsa: «Xotira-bu inson tug'ilgan paytidan boshlab butun umr davom etadigan jarayon».⁴

Agar odam faol va ko'p o'qisa, tafakkur qilsa, oldidagi vazifalarni ijodiy hal qilsa, uning xotirasi nur kabi yorishib miyasining barcha sohalarini yoritadi va barcha kerakli malumotlar miyasiga mustahkam o'rnashib qoladi. Agar aksi bo'lsa, odam danagasalik qilsa, o'qimasa, miyasini tafakkurga undmasa uning xotirasi so'nadi. «Bir qulog'idan kirib, ikkinchi qulog'idan chiqib ketdi» iborasi aynan shunday odamlar haqida.

Yangi so'zni bilganingizdan so'ng, undan samarali foydalaning. 10 daqiqadan so'ng yana foydalaning. Bir soatdan keyin. Ertasi kuni yana. Keyin bir hafta davomida ushbu so'z bilan jummlar tuzing. Shundan so'ng, siz uni eslab qolishga harakat qilishingiz shart emas - yangi lug'at siz bilan abadiy qoladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak til o'rganish jarayoni hammada har xil kechadi. Kimdadir oson, kim uchundir qiyint. Ammo qiyint ekan deb aslo voz kechmaslik, harakatdan aslo to'xtamasdan, oldindagi maqsad sari ildam qadam tashlash kerak. Bugungi o'rganish jarayonidagi to'siqlar, uni bartaraf etgandan keyin juda soddaday tuyuladi. Har bir muammoning yechimi bor! Yangi tilda gapirish - yakuniy maqsadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.05.2021 yildagi PQ-5117-son
2. Shohruh Mirzo Rahmonov, Iskandar Sattibayev "So'z yodlash sirlari", Toshkent 2015, "Istiqlol nuri", 70-bet
3. León, Riley de (19.11 2020). „The education app that is making equals of Bill Gates and the world's masses“.
4. Grey Uolter "The living brain" Pelican Books, London. 1963

⁴ Grey Uolter "The living brain" Pelican Books, London. 1963